

## Samarqand viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2025-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 082 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 41 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 041 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 379,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 108,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 966,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 412,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 873,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,7 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2025-yil yanvar-mart



### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2023-2025 yillar yanvar-mart ,ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 875 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 844 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 978,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 966,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,6 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Pastdarg'om (3,1 m.), Jomboy (2,3 m.), Narpay (2,2 m.),

Toyloq (173,5 %), Samarqand (131,4 %) tumanlarida va Samarqand (143,1 %) shahrida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 583 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 570 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 478,8 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 70,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

|                                                                                          |                                                                       |                                                                                                                   |                                                                  |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Tashqi iqtisodiy faoliyat<br>va savdo statistikasi bo'limi | <b>Bo'lim boshlig'i:</b><br>N.Abduraimov<br>Tel: +998712308000 (3040) | <b>Ijrochi: Vakant</b><br>Tel: +99866 235 65 80<br>e-pochta: <a href="mailto:info@samstat.uz">info@samstat.uz</a> | <b>Manzil:</b> 140100, Samarqand<br>sh., U.Tursunov ko'chasi, 82 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|